

**TIJORAT BANKLANING HISOB-KITOB SOHASIDAGI
FAOLIYATINING IQTISODIY ASOSLARINI TAHLILI**

Xomidov Zafar Axmadjonovich

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqot ishida bank sohasida xalqaro hisob-kitoblarni va ularning rivojlanish evolyutsiyasi bilan yaqindan batafsil o'rganish, bank sohasida xalqaro hisob-kitoblarni rivojlantirish samaradorligi va rivojlanishga ta'sirini qiluvchi ko'rsatkichlarni topish hamda ularni kelajakda yanada samaradorligini oshirish yuzasida amaliy tavsiyalar taklif etish muhim vazifa sifatida qilib olingan. Ilmiy ish oldiga qo'yilgan maqsad yordamida, dissertatsiyada hisob-kitoblarga doir xizmatlarining takomillashishi, O'zbekiston bank amaliyotida samarasini oshirish ilmiy ishda to'plangan statistik axborotlar yordamida o'rganilgan va umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: bank, xalqaro hisob-kitoblar, Swift, Target, hisoblash usullari.

Abstract. In this scientific research work, a close detailed study of international settlements in the banking sector and their development evolution, to find indicators that influence the development of international settlements in the banking sector, and to offer practical recommendations for increasing their effectiveness in the future made as an important task. With the help of the goal set before the scientific work, in the dissertation, the improvement of accounting services, increasing the effectiveness of the banking practice of Uzbekistan was studied and summarized with the help of the statistical information collected in the scientific work.

Key words: banking, international payments, Swift, Target, calculation methods

Xalqaro hisob kitoblar sohasida tub burilishni yasovchi usullarni oladigan bo'lsak, bunday usullardan biri bo'lgan Swift usuli mazkur tizim rivojlanishi uchun istiqbolli samaradorlikka erishishi aniq. Xalqaro banklar tarmoqlari doimiy ravishda tez suratlarda o'sishda davom etmoqda. Butun dunyoda bo'layotgan globalizatsiya sodir bo'layotgani va axborotlarning xaddan ziyod ortib ketishi natijasida telekommunikatsiya xizmatiga nisbatan bu talablarni qondirish yuzasidan ham butun dunyoda xizmat qiladigan global tarmoq yaratish zaruratini paydo qiladi. Bunday tarmoqlar yaratilgan va tarmoqlar to'lovlar qabul qilish va o'tkazish, aktivlarni to'g'ri boshqarish va muntazam ravishda axborotlar bilan doimiy ta'minlab turish vazifasini bajarib kelmoqda. Bu tarmoqlardan biri sifatida biz HEBS - Hexagon Electronic Banking System kabi butun dunyoda eng mashhur bo'lgan tarmoq turini kiritishimiz mumkin. Mazkur tarmoqdan ham mashhur yana bir tarmoq bor ki bu tarmoq eng gigant tarmoq hisoblanadi va u SWIFT moliyaviy xabarlar tarmog'i deb nomlanadi. Albatta bu tizimga qo'shilayotgan yoki allaqachon qo'shilgan har bir bank o'zini dunyo moliya uyushmasining to'laqonli a'zosi deb hisoblashi tabiiy.

Valyutani belgilash uchun ISO (International Standards Organization) ishlab chiqargan uch harfli koddan foydalanilib keladi (masalan, USD, UZS). SWIFT xalqaro hisob kitob tizimining eng asosiy yutug'i aynan mazkur tizim uchun yaratilgan standartlar bo'lib, bu standartlarni Xalqaro standartlash tashkiloti yaratib bergan bo'lib, keng miqyosda foydalanishidir. Mazkur standartlarga muvofiq har bitta davlatning o'z ichki tartibi va qonunidan kelib chiqib hujjatlarning xilma-xilligi mavjud, shuningdek tillarning ham keltirib chiqadigan muammolari vujudga kelganga ushbu standartlarni qo'llash mazkur qiyin vaziyatlarni yengishga ancha ko'mak beradi.

SWIFT ichki talablarini ko'zdan kechirsak, bu tizimning boshqa butun dunyoda qo'llaniladigan mashhur tizimlardan ustun tomonlari ko'p ekanki, ular aynan bu tizimda kerka bo'lgan qismlarini olib o'zlarining tizimlarida qo'llashmoqda. Bunday tizimlarga misol qilib Londoning CHAPS, Parijning SAGITTAIRE, Nyu - Yorkning SHIPS tizimlarini misol tariqasida keltirib

o'tishimiz kerak. SWIFT ichki talablarida keltrilishicha axborotlar juda yuqori darajada himoyalangan hisoblanadi. SWIFT ichki talablaridan asosiysi bu uni teminallarini ulash talabi hisoblanadi. Mazkur tizimdan foydalanayogan har bir tashkilot yoki ishtirokchi har bittasi uchun o'ziga tegishli bir martalik sekretniy kod bilan har bitta ishtirokchini qayd etish bilan birgalikda kelayotgan barcha ma'lumotlar nazoratishini olib borish shuningdek mazkur ma'lumotlar yordamida har bittasiga ulangan teminallarni topishi lozim bo'ladi. Bu ma'lumotlar shiflanishida maxsus qurilmadan foydalib ish ko'riladi. Bu qurilma modul yordamida tashkil qilingan bo'lib, ixtiyoriy sonlar yordamida genratordan foydalangan tarzda shifrlangan shifrllovchi kalitini hosil qilib beradi.

Mazkur moduldan foydalanuvchiga keyingi qayd qilinishi uchun yangi kod ishlab chiqiladi. Buni kalitlar almashinishi tartibi deb yuritib boriladi. Mazkur terminalda aniqlanganligi tasdiqlangandan keyin tizimda qayd etiladi. Hamma kodlar hamda kalitlar SWIFT terminaliga mikroprotssessor karta (MK) orqali kiritib boriladi. Mikroprotssessor kartani xavfsizlik tizimi USE(User Security Eshancoment USE) shakllantiradi. Agar terminallar buzilsa yokida ma'lum sabablar ya'ni uzatishda xatoliklar sodir bo'lganda, ma'lumotlar fayli formati tizimga kiritish talabiga mos bo'lmaganda, terminalni ulash talabi buzilganda, shovqin, liniya uzilishi sodir bo'lganda va shunga o'xshash vaziyatlar vujudga kelganda terminallar avtomatik ravishda o'z ush faoliyatini to'xtatib o'chadi. Bu hol albatta maxsus faylda qayd etib boriladi. Shuning uchun juda past sifatli liniya aniqlanadi.

Bunda foydalanuvchilarning berilgan imtiyozini farqlash vositasi axborot xavfsizligini ta'minlab beruvchi qo'shimcha chora hisoblanib kelinadi. Bulardan tashqari, mazkur tarmoqda tez-tez to'xtab qolishidan himoyalash sababli axborotlarni zaxiraga nusxalab ya'ni qo'shimcha qilib olib qo'yish hisobga olingan. SWIFT tarmog'i uchun hamma imkoniyatlardan foydalanish, maxsus ishlab chiqilgan dasturiy apparat interfeysi mavjuddir. Butun dunyoda 100dan ortiq firmalar SWIFT xalqaro hisob kitob tarmog'i uchun o'z terminallarni taklif qilib kelmoqdalar. Bu terminallar IBM (PS/2, 5370, RS/6000), Sun

Microsystems (SPARC oilasiga mansub protsessorli kompyuterlar), Digital Equipment (VAX va Alpha tizimi), Newlett Packard (Apollo 9000) singari kompaniyalar tomonidan taklif qilinmoqda. Ammo SWIFT xalqaro hisob kitob tarmog'ini uchun terminlar kompleksi asosan Digital va IBM kompaniyalar terminlari ancha mashhurroq hisoblanadi.

SWIFT xalqaro hisob kitob tarmog'ini sohalar tizimida qimmatli qog'olar oldi sotdisida, savdo punktlarida xizmat ko'rsatishda, pul bozori va valyuta bozorida, butun dunyo bo'ylab xalqaro pul o'tkazmalarida, bank operatsiyalarida, butun dunyodagi moliyaviy xizmatlarda o'tkazmalarining tezkorligini ta'minlashda muhim amaliyotlarni bajarib kelmoqda.

Bunda vosita hamda xizmat haqqi baland bo'lishiga qaramay turib SWIFT soha abonentlari soni kundan kunga oshib kelmoqda. Albatta bu hol SWIFT sohasi jamiyatiga kelajakda moliya faoliyatining boshqa tarmoqlarini qamrab olgani holda tarmoqni yana ham kengaytirish imkonini yaratib beradi.

SWIFT tizimi valyuta sistemasida kliring funksiyasini bajarmaydi. SWIFT tizimining avtomatik tarzda ishlashi nazorat qilishni, jo'natib beruvchi hamda qabul qilib oluvchining haqiqiy ekanligini tekshirib olishni, xabarlarni yuqori tezlik bilan taqsimlab berishni hamda berilgan ma'lumotlarni shifrlashni o'z ichiga qamrab oladi. Agar Swift tarmoqi qabul qiluvchi tarmoqqa oldin ulangan bo'lsa, xabar to'g'ridan-to'g'ri aloqa kanali yordamida uzatiladi aksincha bo'lsa talab qilib olinguniga qadar umumiy bozorda turadi. Ma'lumotlarning uzatilishi hamda ishlashi uchun ketadigan vaqt 20 soniya davom etadi. Butun dunyoda sertifikatlash tashkiloti hisoblangan ISOning SWIFT xalqaro hisob kitob tarmog'ini uchun banklarning hujjatlashitirilishida tan olinishini va tashkil topishi SWIFT xalqaro hisob kitob tarmog'ini uchun eng katta yuqtulardanbiri hisoblanadi. Xatoliklarni oldini olish uchun ham banklarda bitta tizimga olib kelinishi yuzasidan hujjatlarni yaogana bir xl shaklga keltirish juda ko'p yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldini olishga qaratilgan hisoblanadi. Buyuk Britaniya banklararo kliring hisob-kitoblari sohasi tizimi banklar o'rtasidagi kommunikatsiya tizimini yagona standartlarining olib kelgan yutug'ini bemalol

ko'rsata boshladiki, bunda mazkur tizimlarning analoglari milliy darajadagi sifati tarzida o'zlarida qurol tarzida qo'llay boshladi va Buyuk Britaniya banklararo kliring hisob- kitoblari sohasi tizimi CHAPS bunga misol bo'la oladi.

Bu o'z tarkibiga 200 taga yaqin bank hamda bir qancha hisob-kitob markazlarini o'z ichiga oladi bular: Amerika GHIPSI, Shveysariya Sini boshqalardir.

1970-yillardan boshlab SWIFT tarmoqlarida ma'lumotlar hamda manzillar standart formatlari tashkil qilinib boshlandi.

Swift sohasi yordamida kompyuterlar bank hamda moliya xabarlarini 7ta kategoriyaga bo'lib taqdim etadi. Bu kategoriyalar esa o'z negizida 70tadan ortiq turdagi ma'lumotlarni jamlashtirgan. Har bitta turdagi bank hamda moliya tashkilotlari talab etadigan elementlarning hammasini to'liq hamda aniq yoritib beradi.

Swift tarmoqlarining xavfsizligi o'ziga xosdir. Ma'lumot o'tkazish xavfsizligi falsifikatsiya, yo'qotishlar hamda javobsiz qoldirishdan to'lov topshiriqnomalarini va moliyaviy ma'lumotlarini saqlash shuningdek muhofaza qilish yuqoridagi tizimga bog'liqligini anglatadi. SWIFT xalqaro hisob kitob tarmog'i tizimi boshqa to'lov tizimlaridan farqli ravishda faqatgina xavfsizlik nuqtai nazardan emas balki maxsus chora ko'ruvchi dasturlardan ham tashkil topgan. Bu dasturlar hisoblash markazlarida ishga tushiriladi. Bu dasturlar quyidagilar:


- vazifaga shart berilganda boshi va oxirida tizim terminlardan foydalanishni tekshirib turishi avtomatik ravishda;
- tizimga kiruvchi va chiquvchi barcha axborotlarni avtomatik tarzda raqamlashtirish va bu raqamlashtirish tarkibiga kiruvchi ma'lumotlarni o'zi nazorat qilishi;
- ma'lumot almashishda ikkita bank orasida individual kalitlar yordamida avtomatik tarzda vazifalarni bajarish;
- to'lovlarni qabul qiladigan bank tomonidan avtomatik tarzda

tekshirtirish.

Swift yordamida tezkorlik bilan ma'lumotlarni jo'natish, banklarning o'z hisobidagi mablag'larini tezlik bilan qaytadan joylashtirishga imkon yaratadi. Swift orqali yuboriladigan ma'lumotlarni teleks yoki boshqa aloqa vositalaridan farqli ravishda, ancha tez yetib boradigan qilib, qaytadan ishlanadi va bu bank tizimida va mijoz hisobvarag'ida o'z aksini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida Swift tizimiga ulanish ya'ni a'zo bo'lish hamda faoliyat yuritish muammolari mavjud. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida so'mda bo'ladigan to'lovlar Markaziy bankda joylashgan yagona bo'lgan hisobvaraqlarni tijorat banklariga tegishlilari yordamida bajarib borilsa, valyutalarda amalga oshiriladigan operatsiyalar bular mijozlarning ko'pini ko'chirish, o'z mablag'larni o'tkazish va boshqalar Swift tizimi yordamida bir-biridagi hisobvaraqlar yordamida amalga oshiradi. Bundan kelib chiqib, hatto ichki to'lovlarda ham agarda bularning soni ko'proq bo'lsa, aksincha bo'lsa qog'oz to'lov topshiriqnomalarida ishlasa ham bo'ladi albatta bu faoliyatda Swift tizimining o'rni juda ham kattadir.


Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, to'lov tizimi yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2004 yildan 2017 yilgacha o'sishda davom etib , sekin pastlab yana 2021 yildan yana o'sishni boshlagan , buni keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.



4-rasm. Markaziy bank to'lov tizimi orqali amalga oshirgan tranzaksiyalar soni, 2021 yil

Manba: cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidai tuzildi.

Markaziy bank bergan ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, to'lov tizimi yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalarni summasi miqdori 2004 yildan 2013 yilgacha o'sishda davom etib, sekin pastlab yana o'sishda o'ynab kelgan 2017 yilgacha, 2018 yildan esa yana o'sishni boshlagan va qariyb oldingi yillarga qaraganda o'sish 1,5-2 baravargacha o'sgan, buni keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.



5-rasm. Markaziy bank to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan transaksiyalar summasi, 2021 yil.

2023-yil qilingan statistik natijalariga nazar tashlasak, xalqaro to'lovlardan bankning komissiya daromadi 2022-yilga nisbatan 497,2 milliard so'mga ortib, 1875,3 milliard so'mni tashkil qildi yoki 36,1% ga oshgan. Bankning xalqaro hisob-kitoblar yuzasidan xarajatlari 2023-yilda 1793,6 milliard so'mni tashkil etib, 461 milliard so'mga ortgan yoki 2022-yilga nisbatan 34,6% ga, 2023-yilda hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatishdan bankning foydasi 36,2 milliard so'mga oshib, 81,7 milliard so'mni tashkil qildi yoki 2022-yilga nisbatan 79,6% ga ortdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish yordamida ko'rgan foyda ulushi hisobi 13,5% ni tashkil etdi, bu 2022 yilga qaraganda 4,6 milliard so'mga ortiqroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маматов, Б., & Маматова, С. (2023). ИҚТИСОДИЁТДАГИ ДАВЛАТ ИШТИРОКИНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. THE INNOVATION ECONOMY, 1(02), 20-28.
2. Элмирзаев, С., & Маматов, Б. (2023). АКЦИЯЛАРНИ ОММАВИЙ ЖОЙЛАШТИРИШ АМАЛИЁТЛАРИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(3), 283-288.
3. Mamatov, B. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИГА ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯ ВА ХОРИЖИЙ КРЕДИТЛАР ЖАЛБ ҚИЛИШ САМАРАЖОРЛИГИ ТАҲЛИЛИ. Science and innovation, 1(A8), 170-175.
4. Маматов, Б. Ш. Ў. (2022). ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ УСТАВ КАПИТАЛИДАГИ ДАВЛАТ УЛУШИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИККА ТАЪСИРИ. *Инновацион технологиялар*, 1(4 (48)), 109-112.